

VATAN

Dil porasi, ko‘z qorasi
Sen o‘zingdiansan.
Mening ko‘nglim sen aslida,
Sen ko‘zimdiansan.
Tomirimda tomir yoygan
Ilk so‘zimdiansan.
Ilk og‘rig‘im, ilk yomg‘irim,
Naysonim, Vatan.

Qir ustida yonboshlagan
Bobom chaylasi.
Bu dunyoda kimlarningdir
Orzu-havasi.
Dimog‘imda - yulduz isi,
Shabnamlar isi,
Momom ekib ketgan kashnich,
Rayhonim, Vatan.

Quloq solsam shivirlagay
Hatto toshlaring.
Oy-u quyosh, kamalaklar
Ko‘z-u qoshlaring.
Beshigimni tebratgandir
Qaldirg‘ochlaring,
Oy-u quyosh ko‘rpa solgan
Ayvonim, Vatan.

Bo‘ronlari tulporlarga
Tunlar yol bo‘lgan.
Bir o‘g‘loni chinor, biri
Majnuntol bo‘lgan.
Boburlari otdan tushmay
Qaddi dol bo‘lgan,
Moziylari, chamanzori
Payhonim, Vatan.

Valilardan ibrat so‘ylar
Juldur sahrolar.
So‘ndi qancha saltanatlar,
Qancha tug‘rolar.
Maqbaralar aytsin lekin,
Aytsin Zuhrolar:
Yer ostidan suhbat aylar
Hanuz Kubrolar,
Termiziylar bedor yotgan
Qo‘rg‘onim, Vatan.

Ne tong edi - izg'irinlar
Zahrini tortding.
Dasturxonda muztar qoldi.
Qand-u naboting.
Shahidlarning munqlaridir
Har bir raboting,
Abadiy yod erur asli
Adabiyoting,
Cho'lpon, Fitrat, Qodiriy ham
Usmonim, Vatan.

Men dunyoni ne deb aytay?
Bu bir ko'hna bog'.
O'z bilganin sayrar bunda
Har qumri, har zog'.
Aslo sening bag'irlaring
Ko'rmayin men dog'.
Yulduzlarga osmon bo'lgan
Ey, nurli tuproq,
Osmonlari yer-u yeri
Osmonim, Vatan.

So'qmog'ingda men bir epkin
Yo bir nasimman.
Yaproq sening, xas bo'lsam gar
Sening xasingman.
Jayronlaring ko'zlarida
Qolar so'zingman.
Mening borim sen bilandir,
Yo'g'im sen bilan,
Katta yo'lga chiqqan ulug'
Karvonim, Vatan.

O'zbekison xalq shoiri
Sirojiddin Sayyid
“Vatan haqida she'rlar” kitobidan